

**“BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA EKOLOGIK ONG VA  
MADANIYATNI SHAKILLANTIRISHNING PSIXOLOGIK  
TARAFLARI”**

*Urganch Davlat Universiteti Magistratura bo'limi  
Psixologiya ta'lim yo'nalishi 231-guruh magistranti*

**Abdullayev Feruzbek Maqsud o'g'li**  
[abdullayevferuzbek34@gmail.com](mailto:abdullayevferuzbek34@gmail.com)

**Annoatasiya:** Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish mazmuni, o‘qitishning ilmiy-metodik ko‘lamini kengaytirish mazmuni zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshlang‘ich sinf, tabiat, jamiyat, inson, tabiiy fanlar, ekologiya, madaniyat, tafakkur, kreativ, tushunchalar, ko‘nikma, malaka, kompetensiya.

Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish jahon hamjamiyatining umumiy global muammosiga aylandi. Jumladan, o‘tgan davr mobaynida dunyo jamiyat hayotiningbarcha sohalarini isloh qilish barobarida, insonlarga ekologik barqaror hayot sharoitini yaratish har bir davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu munosabat bilan umumbashariy va mintaqaviy ekologik xavf, uning kelib chiqish sabablari, inson va tabiat, jamiyat va tabiat orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ekologik halokatga yo‘l qo‘ymaslik hozirgi kunning muhim muammolaridan hisoblanadi.

Jahonda tabiatni ekologik mantiqiy ya’ni tushuncha nuqtai nazaridan o‘zlashtirish qadriyatlarning mazmunini belgilaydigan mezonga aylanadi. Ayni paytda ekologik inqiroz va halokatlar oldini olishning tarixiy zaruriyati bu qarashlarni nazariy ong darajasiga ko‘tardi. Ayniqsa, tabiatga antropogen va

texnogen ta'sirning kuchayishi bilan ekologik madaniyatni rivojlantirishning obyektiv zaruriyati yuzaga keldi. Har qanday tarixiy davr rivojlanishining ichki harakatlantiruvchi mexanizmi tabiat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarga bog'liq bo'lgan. Bu ziddiyatlarning hal qilish vositalari ijtimoiy ongning turli shakllarini xususan, ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish, axborot ta'lim muhiti sharoitida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va darsning didaktik talablarga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasi. Ta'kidlash joizki, tabiatga ekologik madaniy munosabat stixiyali tarzda vujudga keladigan hodisa emas. Insonning tabiatga nisbatan moddiy munosabati ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida insonni o'rabi turgan ijtimoiy-madaniy muhit ta'siridagi ekologik merosning tarixiy rivojlanish jarayoni natijasidir.

Shu bois ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik munosabat bog'lanishlarini sabab-oqibat tarzida qarash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ekologik ongning rivojlanishi ekologik munosabatning nofaol in'ikosi bo'lmasdan, balki shu munosabatlarni tavsiflovchi manbaga, mexanizmga bog'liq, ya'ni ekologik ehtiyojlarga borib taqaladi. Bunda ekologik madaniyat ekologik ehtiyojlarni qondirishning texnologik jarayoni sifatida qaralmog'i kerak. H.Bozorovaning tadqiqot ishi talabalarda ekologik madaniyatni shallantirishning ilmiy-pedagogik asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda ekologik madaniyatga quyidagicha ta'rif beradi:

Ekologik madaniyat-bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va mas'uliyatli yondashuv. Unda tabiat bilan inson o'rtasida o'zaro oqilona mas'uliyatli munosabat tarkib topadi. Shuningdek, ekologik madaniyatning asosiy tarkibiy qismini ekologik ong tashkil

etadi. Ekologik ong inson bilan tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ifodalovchi bilim, tushuncha, tasavvur, munosabat, harakatlar majmui deb ta’kidlaydi.

T.N.Nishonovaning ilmiy-tadqiqot ishida ekologik madaniyatga: “Ekologik madaniyat-bu tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik his -tuyg‘ularning shakllanishi, faol hayotiy nuqtai nazarda turish, ekologik bilimga ega bo‘lishdan iborat” deb ta’rif beradi va uning shakllanish mexanizmini ekologik bilim, ekologik ong, ekologik his -tuyg‘u, ekologik e’tiqod, ko‘nikma, malaka va nihoyat ekologik faoliyat tarzida ko‘rsatadi.

Mavjud tadqiqot ishlarida, asosan, o‘quvchilarga ekologik ta’lim-tarbiya berish, ekologik madaniyatni shakllantirishning maqsadi, mazmuni, vazifalari, shakl, metod va vositalari, shuningdek, insonning tabiatga nisbatan ehtiyojkorona munosabati, ekologik madaniyati, shaxsiy va ijtimoiy qiziqishlarining o‘zaro aloqadorligi, istiqboldagi ekologik andoza asosida mavjud vaziyatlar o‘rganilgan.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishda, taqqoslash, sintez qilish, abstraktlash, umumlashtirish va xulosa qilish singari hayoliy jarayonlar kreativlik mahsuli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, o‘qitish tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ yondashuvni takomillashtirishdan iborat.

Hozirgi vaqtida taklif etilayotgan o‘quv dasturlariga ijodiy yondashish, shuningdek, o‘quvchilar salohiyatini rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur. Zamonaviy jarayon o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olishi kerak. Iqtidorli o‘quvchi nafaqat ko‘rish, balki o‘ziga ishonishga, o‘z ahamiyatini anglashga, qiziq savollarga mustaqil ravishda javob berishga, o‘z-o‘zini anglash jarayoniga hissaqo‘shishga yordam berishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuv jarayoni uning ijodiy faoliyatida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Kreativlik o‘quvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo‘nalishi va o‘zini boshqara olishida ko‘rinadi. Uni o‘zini faolligi, o‘z-o‘zini boshqara olishi bilan etuk rivojlanayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvni samarali tashkil etish o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy ongi shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me’yorlardir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishda xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy g‘oyaning o‘quvchilar ongida aks etishidir. Kreativlik, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta’lim-tarbiya jarayonida yo‘lga qo‘yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g‘oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xo‘jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritish bilan O‘zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro‘e’tiborining oshishiga o‘zining munosib hissasini qo‘sheyotgan shaxslar hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlardan samarali foydalanish orqali shakllantiriladi.

Xususan, inson olamning xilma-xilligini, tuzilishi va xususiyatlarini sezgi a’zolari orqali amalga oshiradi. Sezgi bu psixik jarayon bo‘lib, narsa va hodisaning ayrim xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi va kreativlik (ijodiy) yondashishni yuzaga keltiradi. Sezgi a’zolari: ko‘rish, eshitish, hid bilish, teri

orqali sezish va ta'm bilish orqali olamning ayrim xususiyatlarini sezadi. Masalan, tog'ni ko'radi, otning kishnashini eshitadi, gulning hidini sezadi, asalning shirinligini ta'm bilish a'zosi orqali sezadi, olmaning ranggini ko'radi.

Darhaqiqat, bugungi kunda "Ekologik ta'lim-tarbiya" va "Ekologik madaniyat" er yuzidagi sivilizatsiyani saqlab qolishi, tiriklik manbalarining yo'q bo'lib ketish va insoniyat o'limiga qarshi mexanizmlarni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan omillardan biridir. Shuning uchun ekologik inqiroz muammofiga "Ekologik ta'lim"ni safarbar etish va sivilizatsiya yutuqlari bilan uyg'un holda har bir davlat ushbu sohadagi qonunchilik loyihalarini qayta ko'rib chiqish hamda insoniyat manfaatlariga muvofiqlashtirishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduazimova Z.A. Globallashuv jarayonida ekologik axloqni shakllantirishga kontseptual yondashuv. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref.- Toshkent, 2021. - 53 b.
2. Aripjanova A.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliv ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: avtoreferat (PhD), 2017. -50 b.
3. Абдуллаева Г.З. Экологическая политика Республики Узбекистан в условиях поэтапной интеграции в мировое сообщество: Автореф. дис. канд. полит. наук. -таШкент, 2001. -22 с.
4. Avezov Sh. Maktabda ekologik tarbiya. -Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 62b.